



KONFUTSIYNING DAVLATCHILIK ASOSLARINI SHAKILLANTIRISHGA NISBATAN HUQUQIY QARASHLARI

Abdurasulov Muxtorbek Bo'ri o'g'li

*Termiz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika
va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi Xitoy konfutsiylik ta'limoti asoschisi, faylasuf, mutaffakir va siyosiy arbob – Konfutsiyning davlatchilik asoslari haqidagi qarashlari yoritiladi. Bunda siyosiy arbobning falsafiy ta'limotlaridagi davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, ijtimoiy munosabatlar va adolatli hukmdorning fazilatlari kabi g'oyalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Konfutsiy ta'limoti, Lun Yuy, Patriarxal boshqaruv, Adolat va insoniylik, Davlat va jamiyat boshqaruvi, Hukmdorning axloqiy mas'uliyati, Jamiyat barqarorligi*

Konfutsiy (Milloddan avvalgi 551-479-yil) - Xitoylik mutafakkir, konfutsiychilik asoschisi va buyuk siyosiy arbob sifatida qadimgi Xitoy davlatchilik tuzumi shakillanishida tarixiy o'chmas iz qoldirgan. Konfutsiyning o'z davriga nisbatan ilg'or g'oya va qarashlari Xitoy shuningdek unga qo'shni bo'lgan davlatlarning ijtimoiy jarayoniga o'z ta'sirini chuqur ko'rsatgan. Uning falsafiy qarashlari shogirdlari tomonidan kitob shakliga keltirilgan va “Lun Yuy” (“Suhbatlar va munozaralar”) deb nomlangan.

Konfutsiy o'z ta'limotida davlatning patriarxal boshqaruv shakli g'oyalarini ilgari suradi. U davlat va fuqarolarni oilaga qiyoslab, oilada otaning o'z o'rnini bo'lgani kabi, barcha farzandlar unga so'zsiz itoat etishi, yaniki, ota otadek, farzand farzandek bo'lishi kerak - deya takidlagan. Bunda o'z o'zidan ko'rinib turibdiki boshqaruv yuqoridan pastga qarab yo'nalishi ko'zda tutilgan. Shuningdek Konfutsiy muttasil



zo'rlikka asoslanmagan aristokratlarning hokimyat tepasida turishini yoqlab, o'sha davr ijtimoiy holatidan kelib chiqib sifatsiz ta'lim ko'rgan past tabaqa vakillarini hokimyat tepasiga kelishini, davlatning zavolga yuz tutishida ko'radi.

Konfutsiy ta'limotidagi qoidalarining katta qismida asosiy e'tibor yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Davlat va xalq o'rtasidagi munosabatda qattiy qonunlargagina emas balki an'anaviy qadriyatlarga, adolat, insoniylik prinsiplariga ham asoslanishi zarurligini takidlab, shunday deydi: "Agar xalq qonunlar bilan boshqarilsa va jazolar bilan tartibga solinsa, xalq (jazodan) qochishga intiladi va uyatsiz bo'lib qoladi. Agar xalqni fazilatli kishilar ezgulik bilan boshqarsa, ajdodlar urf-odat va marosim orqali tartibni saqlasa, xalq uyatni bilib, tuzaladi".[4:2-3]

Konfutsiychilikda insonlar o'zaro munosabatlarda bir biriga muruvatli, oliyjanob, saxovatli bo'lishligi va doim ezgu ishlarga shaylanishni targ'ib qiladi. Shuningdek uning asarlarida boshqalarga ibrat bo'lishi uchun mutlaqo mukammal inson qiyofasi gavdalanadi. Uning hikmatlaridan birida shunday deyiladi: "Oliyjanob odam xavfsizlikda ham xatarni, to'qlikda ham yo'qchilikni unutmaydi. Tartib hokm surgan paytda tartibsizliklar bo'lishini nazardan qochirmaydi. Bunday odam zinxor xavf ostida qolmaydi, demakki, uning Vatani ham, xalqi ham bexatar". Konfutsiy bu boradagi qarashlari orqali, ma'nan, aqlan va jismonan yetuk fuqarolardan tashkil topgan davlat doimo gullab-yashnashi, rivojlanishda barqaror bo'lishi va hech qachon zavolga yuz tutmasligini ta'kidlaydi.

Konfutsiychilikda jamiyat va davlatni boshqarish inson (podshox, hukumdor, amaldor) ning o'zini o'zi axloqiy-ma'naviy tarbiyalashiga, takomillashtirishiga bog'liq degan gumanistik g'oya, yondashuv ilgari suriladi.[2:53] Bu orqali u davlat boshqaruvchisi bo'lgan hukumdor jamiyatni tartibga solishdan oldin, birinchi navbatda o'zining kuchli shaxsiyatini shakillantirish talabini qo'yadi. Yaniki o'zligini bilmagan, o'z falsafasini yarata olmagan insondan, o'zgalar hayotini o'zgartirish uchun harakat qilishini axmoqlikka yo'yadi.

Konfutsiy ta'limotida xalq, davlat va jamiyat boshqaruvining faol subyekti emas, balki hukumdor (podshox, knyaz, monarx) hukmi va xohish-irodasining



ijrochisi, bajaruvchisidir.[1:19] Bunda xalq, davlat va jamiyatning boshqaruvdagi roli cheklangan bo'lib, asosiy e'tibor hukmdorga (podshoh, knyaz yoki monarx) qaratilgan. Bu degani, Konfutsiy fikricha, jamiyatning barqarorligi va tartibi hukmdorning oqilona boshqaruvi va odil siyosatiga bog'liq. Shu sababli, xalq hukmdorning irodasini bajaruvchi sifatida ko'riladi, ya'ni ular faol boshqaruv subyekti emas, balki passiv ijrochidir.

Buni ta'limotning bir qancha omillaridan bilishimiz mumkin:

1. Iearxik tartib
2. Hukmdorning axloqiy mas'uliyati
3. Xalqning itoatkorligi
4. Jamiyat barqarorligi

Yuqoridagilardan xulosa qilgan xolda, konfutsiylik davlat va jamiyat boshqaruvini axloq-odob normalari, adolat va qattiy tartib-intizom bilan amalga oshirish kerakligi, har qaysi makon va zamonda davlatchilik masalasi, ayniqsa boshqaruv nozik masalalardan biri bo'lib kelganligini o'z o'rnida ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T: O'zbekiston. 2007. 19-b
2. Alimasov V. Konfutsiylik va sharq davlatchiligi.T.: Falsafa va huquq.2006. 53-b
3. Konfutsiy. Hikmatlar kitobi. 2010.
- 4.Turdiyev B. Konfutsiyning siyosiy-huquqiy ta'limot rivojiga qo'shgan hissasi. T.: Yangi dunyo. 2023. 2-3-B
5. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
6. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.



7. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G 'OYALARI TARG 'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
8. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 166-168.
9. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAkatINING MOHIYINING IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.